



**ART TERAPIYANING O'YIN TURI YORDAMIDA BOLALARDA
IJTIMOIY ODOBNI SHAKLLANTIRISH.**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim yo'nalishi) 1-kurs magistranti
Mamirova Maxzunaxon Azamjon qizi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15225442>

Annotatsiya: Mazkur tezisda maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning ijtimoiy odobini shakllantirishda o'yin terapiyasidan foydalanishning afzalliklari haqida ma'lumot beriladi. O'yin terapiyasi yordamida bolalarda jamoa bo'lib ishlash, o'zaro ishonch, bir birini hurmat qilish kabi ma'naviy fazilatlar shakllanadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy odob, jamoa bo'lib ishlash, o'yin terapiyasi, o'zaro hurmat, hissiy intellekt, mas'uliyat, muammolarni hal qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida 2017-yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik xujjat "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF 5198-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi PQ 3305-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari qabul qilinadi.

"Art terapiya" art – san'at, therapy –davolash, san'at yordamida davolash degan ma'noni anglatadi. Uning bir necha asosiy turlari mavjud. Shu jumladan, o'yin turining bolalar ijtimoiy odobini rivojlanishi uchun ahamiyati katta.

O'yin terapiyasi tarixiga nazar solsak, Aflotun (miloddan avvalgi 429-377) darvidan buyon o'yin muhim deb tan olingan va "odam haqida bir yillik suhbat davomda emas, bir soatlik o'yin davomida ko'proq narsani bilib olish mumkin" deb ta'kidlagan. XVIII asrda Russo (1712-1778), o'z kitobida o'yinni bolalar haqida bilish va tushunish vositasi sifatida kuzatishni muhimligi haqida yozgan. Fridrix Frobel, Inson tarbiyasi (1903) kitobida o'yinda ramziylikning muhimligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra "o'yin bolalikdagi eng yuksak taraqqiyotdir, chunki bu faqat bolaning qalbida mavjud bo'lgan narsalarni erkin ifoda etishdir".

1930-yillarda o'yin psixoterapiyasida yangi yondashuvlar paydo bo'ldi, ularning kelib chiqishi, psixozanalizda yotadi. 1950-yillardan boshlab, o'yin terapiyasi nazariyasi va amaliyoti gumanistik yondashuv ichida rivojlana boshladi. 1990-yillarda esa kognitiv xulq-atvorni davolashda o'yinni ishlatishga qiziqish ortgan.

O'yin terapiyasi –o'yinlardan foydalanishga asoslangan bolalar va kattalarga ta'sir qilishning psixoterapevtik usulidir.

O'yin terapiyasi bolalarda ijtimoiy odob va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ajoyib usuldir. Bolalar o'yin orqali o'zaro munosabatlar, hissiy aloqalar va guruhda hamkorlik qilishni o'rganadilar. Quyidagi bir necha usullar o'yin terapiyasi yordamida bolalarda ijtimoiy odobni shakllantirish uchun xizmat qiladi:

1. *Rollarni ijro etish:* Bolalar turli rollarni ijro etish orqali boshqalarning nuqtai nazarini tushunishni va empatiya rivojlantirishni o'rganadilar. Bu ularga ijtimoiy vaziyatlarni va muammolarni hal qilishni o'rganishga yordam beradi. Masalan, "Do'kondan narsa sotib olish" yoki "Maktabda dars" kabi rollarni ijro etishlari mumkin.

2. *Jamoaviy o'yinlar:* Jamoaviy o'yinlar bolalarga hamkorlik qilish, navbat kutish va birgalikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, lego konstruksiyalarini birgalikda qurish yoki jamoa bo'lib turli vazifalarni bajarish.



3. *Maslahatli o'yinlar*: Bolalar maslahatli o'yinlar orqali muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularga ijtimoiy vaziyatlarda qiynchiliklarni yengishda yordam beradi.

4. *Nizolarni hal qilish o'yinlari*: Nizo holatlarida o'yinlar bolalarga nizolarni hal qilish va murosaga kelishni o'rganishga yordam beradi.

5. *Emotsiyalarni ifodalash o'yinlari*: Bolalar o'yin orqali o'z emotsiyalarini ifodalash va ularga boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularga boshqalar bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishda yordam beradi. Bu usullar yordamida bolalar o'z ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirib, yaxshi ijtimoiy odobni shakllantiradilar. O'yin terapiyasi bolalar uchun qiziqarli va samarali usuldir.

6. *Qoidalarga rioya qilish*: Qoidali o'yinlar bolalarga tartib-intizom va qoidalarga rioya qilishni o'rgatadi. Stol o'yinlari, sport o'yinlari va karta o'yinlari bu maqsadga erishish uchun juda mos keladi.

7. *Ijodiy o'yinlar*: Bolalar ijodkorliklarini rivojlantirib, o'z his-tuyg'ularini ifoda etishni o'rganadilar. Rasm chizish, hikoya yozish yoki qo'shiqlar kuylash bu maqsadga xizmat qilishi mumkin.

O'yin terapiyasining asosiy maqsadi bolalarni qiziqtiradigan va ularning rivojlanishiga yordam beradigan vaziyatlarni yaratishdir. Bu orqali bolalar ijtimoiy ko'nikmalarni va odob-axloq qoidalarini o'rganishadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'yin terapiyasi bu maktabgacha yoshdagi bolaning psixikasi va shaxsiyatida asosiy progressiv o'zgarishlar sodir bo'ladigan faoliyatning universal shakli hisoblanib, o'yin bolaning atrofidagi odamlar bilan munosabatlarini belgilaydi, uni keyingi yosh bosqichiga, yangi faoliyatga o'tishga tayyorlaydi. Shuning uchun o'yinga asoslangan bolalarda hissiy va xulq-atvor buzilishlarini tuzatish usuli sifatida o'yin terapiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lomlashtiruvchi o'yinlar bolalar uchun ularning bo'sh vaqtini qondiradigan o'yin-kulgi shaklida bo'lsada, lekin aslida ular taranglikni bartaraf etishga, bolalarga salbiy his tuyg'ularni “tashqariga chiqarishga” yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimi” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi. PF-5198-sonli Farmoni.

3. M.Artikova-ART TERAPIYA //O'quv-uslubiy majmua, Andijon 2023.4-5b

4. Jose A.Fadul (General 2014).Psixoterapiya va maslahat bo'yicha nazariya va amaliyot ensiklopediyasi.Lulu.com. ISBN 9781312078369.

5. Игровая терапия / (Электронный ресурс)-Режим доступа:
<http://psychologes.ru/glossariy/09/igrovaya-terapiya/> Загл. с экрана.